



## YOSHLAR TARBIYASIDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINING TARBIYAVIY TA'SIRCHANLIGI

**GULSHIRA SAPARBAEVA**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali  
"Madaniyat faoliyati" kafedrasi mudiri, docent.*

**JANABAEVA ROZA**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali  
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi  
2-kurs talabasi*

**Annotaciya:** *Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, yoshlarning madaniy bilimini oshirishda olib borilayotgan chora-tadbirlar, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va qiziqishini ro'yobga chiqarish uchun qilinayotgan keng ko'lamli ishlar haqida so'z boradi.*

**Gilt sózler.** *San'at, madaniyat, tarbiya, inson manfaati, ijod, ma'naviyat.*

Yangi O'zbekiston yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida rivojlanish, jahon miqyosida yuksak tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at markazlarini tashkil etish, ularning iqtisodiy va texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda.

Aholi, ayniqsa yoshlarning madaniy bilimini rivojlantirish, ularning milliy va umummadaniyatining eng yaxshi namunalaridan namuna ko'rsatish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol, shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va qiziqishini ro'yobga chiqarish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yurtboshimiz tomonidan 2019-yil 19-martdagi videoselektor yig'ilishida yoshlarning har tomonlama qobiliyatlarini ro'yobga



chiqarish maqsadida "5 tashabbus - 5 imkoniyat" loyihasi olib chiqildi va bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, barcha O'zbekiston yoshlarini birlashtirgan "Bo'zatov fest," qo'shni davlatlar va O'zbekiston yoshlarini birlashtirgan "Baxshichilik festivali," har 4 yilda bir marta bo'ladigan "Sharq taronalari" festivallari bugungi kunda san'atga qiziqishi bor yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun imkoniyat eshigi sifatida xizmat qilmoqda.

Bugungi yoshlar o'z tarixini o'rganmoqda. Ota-tili, madaniyati, urf-odat va an'alarining qayta tiklanayotgani ularning o'zligini anglashiga sharoit yaratib berayotgani muhim g'alabamizdir. "Bugun yoshlar faqat milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganish bilan cheklanib qolmayapti. Ular dunyo xalqlari erishgan zafarlardan xabardor bo'lmoqda. Xorijda o'qish, bilim olish, fan-texnika yutuqlari, zamonaviy texnologiyalarni egallab, jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga olib kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, jamiyatimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning hali-beri hal etilmagan muammolari e'tiborimizni tortadi, ularni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimiz diqqat markazida turibdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Millat uchun erkinlik, adolat tantanasining yuksak ko'rsatkichi. Erkinlik birovni o'ziga qarshi, birovning mol-mulkini talon-taroj qilish, birovga xiyonat qilish, birovni o'ldirish yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi" deb aytib o'tadi. Erkinlikni to'g'ri tushunib uni hayotimizda to'g'ri qabul qila olishimiz, bu ulug' ne'mat adolat va saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan ezgu maqsadlarda foydalanishi mumkin. Yoshlarning milliy qadriyatlarga ishonchi va e'tibori mustahkam bo'lishi O'zbekiston tanlagan o'ziga xos tashabbus yo'li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo'yadi. Yangi O'zbekiston yoshlar hayotida yangi davrni belgilab berdi va yoshlar buni his etishi va bunday imkoniyat O'zbekiston deb atalmish buyuk yurt ekanini anglab yashasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda san'at va madaniyat rivoji bevosita davlatimiz rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ulug'



bobomiz Abdulla Avloniy aytganlaridek, "Tarbiya masalasi biz uchun haqiqatan ham yo madad, yo ofat, yo saodat, yo falokat masalasidir." Bu dono fikr o'z dolzarbligi bilan ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib, kelajakda bilimli, aqlli el farzandlari bo'lib yetishishida xorijiy tillarni ularga o'rgatib borish ham eng muhim masaladir.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalarni tajribada qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, yosh avlodni mustaqil fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini anglab yetishga ko'maklashish, o'zini o'zi nazorat qilishni shakllantirish, shaxs hayotiy maqsadlariga to'g'ri yo'naltirish, ularda rejalashtirish va amal qilish tuyg'ularini uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi. Oila tarbiyasining o'ziga xosligi, uning ahamiyati, an'anaviyligi, milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar tizimida tutgan o'rni, oila muhitining barkamol avlod va komil inson tarbiyasidagi muhim rolini ta'kidlash joiz. Ushbu masala bo'yicha juda muhim bo'lgan e'tiborli fikrlar bizga meros bo'lib yetib kelgan. Bu ulug' meroslarni biz san'at va madaniyat orqali kelajak avlodga sof, bezavol yetkazishdek vazifa zimmamizda ekanini unutmagan holda harakat qilishimiz kerak. Chunki "San'at va madaniyat rivojlanmasa, jamiyat rivojlanmaydi," degan edi muhtaram yurtboshimiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yoruq va kelajagi faravon boladi. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2019.
2. Sh.Mirziyoyev. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun. - Toshkent, 2017.
3. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent. O'zbekiston nashriyoti 2021-y. 262-B
4. G.A.Saparbarva, P.Q.Paluanizov. Madeniy ilajlar- Toshkent. Fan ziyosi. 2022
5. Sayyora.Toychiyeva. (G.Saparbaeva awdarmasi) Madeniyat ham kirkem oner tarawı iskerligin sholkemlestiriw ham basqariw.